

2025-yil davomida "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	"Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJ ijro organining 2024 yil 25 dekabrda 2-sonli yig'ilishi qarori bilan jamiyatda Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va ularning oldini olish maqsadida 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Jamiyat ijro organining 2024 yil 22 iyulda 19-sonli buyrug'i bilan jamiyat faoliyatiga oid bo'lgan hujjatlar (shartnomalar, ichki hujjatlar) loyihalarini ishlab chiqish jarayonida monopoliyaga qarshi komplaens tizimi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi kiritilgan.
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	Bugungi kunda "Interactive Bees PVT" Ltd tomonidan "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJ ning rasmiy veb saytining dizayni, ma'lumotlar bazasi yangilanmoqda. Jamiyat tomonidan Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi yoki iste'molchilarning huquqlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berish uchun jamiyatning rasmiy saytida aloqa vositalarini tashkil etish belgilangan va sayt yaratuvchiga topshiriq berildi.
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini oldini olish bo'yicha Jamiyatning savdo va marketing bo'limi, hisobhona hodimlari ishtirokida o'quv seminar o'tkazildi. Qonun mazmuni va maqsadi tushuntirildi. Iste'molchilar bilan tuzilayotgan shartnoma shartlariga raqobatni va iste'molchilarning qonuniy huquqlarini cheklovchi yoki kamsituvchi shartlarni kiritmaslik, ustun mavqeni suiiste'mol qilishga olib keladigan harakatlarni sodir etmaslik yuzasidan ogohlantirishlar kiritildi.
5	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.	Jamiyat faoliyatida Raqobat to'g'risidagi qonun talablariga rioya etilishi, qonunchilik buzilishi hatlarlarini oldini olish maqsadida, iste'molchilar bilan tuzilgan shartnomalar shartlari o'rganildi. Organish natijasida shartnoning ayrim bandlarida iste'molchilarning huquqlari kamsitilishi ehtimoli mavjudligi aniqlandi. Komplayens tizimi mas'ul xodimi tomonidan ijro organiga shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish va iste'molchilar huquqlarini kamsitmaslik darajasida o'zgartirish taklifi berildi.

6	Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.	Jamiyat faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik xujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan soxalari xavfilik darajdasiga ko'ra tasniflarga ajratilgan.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	Jamiyat faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarga yo'l qo'ymaslik, faoliyatni qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish maqsadida ichki hujjatlar (shartnomalar) o'rganildi. Organish natijasida shartnoning ayrim bandlarida iste'molchilarning huquqlari kamsitilishi ehtimoli mavjudligi aniqlandi. Komplayens tizimi mas'ul xodimi tomonidan ijro organiga shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish va iste'molchilar huquqlarini kamsitmaslik darajasida o'zgartirish taklifi berildi.
8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	Jamiyatning 2025 yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"da Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarga kiritilayotgan o'zgarishlarni o'rganib borish va amaldagi ichki hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritib borish vazifasi belgilangan. Mas'ul shaxs tomonidan ushbu qonunchilik xujjatlarga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar kuzatib borilmoqda.
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	Jamiyatning monopoliyaga qarshi komplayens tizimi mas'ul hodimi tomonidan savdo va markining, hisobxona xodimlari ishtirokida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari, ularning buzilish xatarlari va ularni oldini olish bo'yicha o'quv seminar o'tkazildi. Bu bo'yicha tushunchalar berildi. Hodimlarning bilim va ko'nikmalari oshirildi. Iste'molchilar bilan bo'ladigan holatlar yuzasidan berilgan savollarga javoblar berildi.
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	Jamiyat xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan xabardorligini aniqlash maqsadida sohaga tegishli xodimlar o'rtasida test sinovli o'tkazildi. Raqobat to'g'risidagi qonun talablari bo'yicha turli slayd shakldagi eslatmalar tarqatildi.
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Jamiyatda monopoliya qarshi komplayens tizimini tashkil etish va uning faoliyatini yuritish, kompaniya uchun afzallik tomonlari yuzasidan video rolik tayyorlandi.

Izoh: Hisobot taqdim etilishida har bir vazifa bo'yicha amalga oshirilgan ishlar aniq raqamlar va tasdiqlangan isbotlovchi hujjatlar bilan taqdim etilishi lozim.